

---

## BU MASKANDA HAQIQIY UZUMCHI-DEHQONLAR KAMOL TOPADI

Oltiariq tumani hokimi Sh.Turdaliyev tumanda faoliyat yuritayotgan Farg'ona Davlat universitetining "Uzumchilik, mevachilik va sabzavotchilik" qo'shma fakultetida bo'ldi.



Hozirda mazkur fakultetda 200 nafar talaba tahsil olib, dehqonchilikning sir-sinoatlarini tajribali ustozlardan o'rganmoqdalar.

Ustozlar va talabalar bilan suhbatda bo'lgan tuman hokimi mamlakatimizda agrar sohani kuchaytirish, xususan, tumanimizda uzumchilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik kabi yo'nalishlarni rivojlantirish, soha bo'yicha kuchli mutaxassislarni tayyorlash masalalari haqida so'z yuritdi.

Barchamizga ma'lumki, Oltiariq o'zining uzumlari bilan dunyoga mashhur. Kelgusida shu mashhurlikni saqlab qolish va uzumning yangi navlarini yaratish ustida ish olib borish lozimligi ta'kidlandi.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-05-24 18:15:37